



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 25 - iyul

I-61-123-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudining 2023-yil ikkinchi chorakdagi faoliyati to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish amaliyotining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-iyuldagi KQ-104-IV-son qaroriga asosan sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash bo'yicha ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalar borasidagi faoliyatni samarali tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi faoliyati to'g'risidagi axborotni tinglab, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi raisi B.Tashpulatovning "Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudining 2023-yil ikkinchi chorakdagi faoliyati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi raisi (B.Tashpulatov)ga:

sudyalar faoliyati samaradorligini yanada oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

sudyalarning ish yurituvida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va ularning faoliyatini qonun va adolat talablari asosida samarali tashkil etish, qat'iy tartib-intizom hamda shaxsiy javobgarlik yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;

jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini bartaraf etish hamda qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash masalasi bo'yicha tumandagi mutasaddi tashkilot va idoralar bilan o'zaro hamkorliklarni kengaytirish;

korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan mavjud muammolarni o'rganish va bartaraf etish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirish;

sud jarayonida ko'rilgan ishlar bo'yicha qabul qilinadigan sud qarorlarini sud majlisi ishtirokchilariga batafsil tushuntirish berilishi amaliyotini davom ettirish;

jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi tomonidan odil sudlovni amalga oshirish va sudlar faoliyatining ochiqligini va shaffofligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

3. Yangihayot tuman sektor rahbarlari (X.Inogamov, A.Azimov, A.Sarabekov, A.Ibragimov) Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi (B.Tashpulatov) bilan birgalikda jinoyatlar soni oshgan har bir mahallada jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilib, jinoyatlarni sodir etilmaslik choralarni ko'rish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya (A.Iminoxunov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov